

## SHUKRULLONING “TABASSUM O‘G‘RILARI” DRAMASIDA IJTIMOIIY MUAMMOLAR TALQINI

**Kurbanova Saida**

*filologiya fanlari nomzodi, dotsent,  
Urganch davlat universiteti  
mustaqil tadqiqotchisi*

***Annotatsiya:** Mazkur maqolada O‘zbekiston xalq shoiri Shukrulloning “Tabassum o‘g‘rilari” dramasi, unda tanqid ostiga olingan loqaydlik va firibgarlik ijtimoiy illati tahlil etiladi.*

***Kalit so‘zlar:** drama, loqaydlik, ijtimoiy illat, obraz, sahna, parda, dramaturg, zamonaviy muammo.*

O‘zbekiston xalq shoiri, yozuvchi, dramaturg Shukrullo o‘zbek dramaturgiyasi taraqqiyotiga o‘zining munosib hissasini qo‘shdi. Binobarin, adib dramaturg sifatida “Tabassum o‘g‘rilari”, “Unsiz faryod”, “Hasrat bog‘i”, “To‘ydan keyin tomosha”, “Janjal”, “O‘g‘rini qaroqchi urdi”, “Xatarli yo‘l” kabi pyesa va dramalar yaratdi. Insonlarning ruhiy-ma‘naviy olami va madaniyati, ma‘naviy-axloqiy qadriyatlar masalasi bu dramalarning barchasida “qizil ip” bo‘lib o‘tadi, dramaturg o‘z asarlarida ushbu muammolarning turli qirralarini badiiy talqin etishga harakat qiladi.

Shukrullo dramaturgiyasi va dramalarining sahnaga qo‘yilishi haqida adabiyotshunos olimlar N.Karimov, H.Abdusamatov, M.Boboyev, F.Jo‘rayev, B.G‘ulomovlarning maqola, taqriz va tadqiqotlarida muhim fikrlar ilgari surilgan. Shukrullo o‘zining dramaturgiya sohasidagi tajribalarini yanada mustahkamlash maqsadida Karlo Gossining “Baxtli gadolar” dramasi o‘zbek tiliga o‘g‘irgan [Shukrullo. 4:148-238].

F.Jo‘rayev Shukrullo dramaturgiyasi haqidagi “Illatga qarshi qaratilgan tig‘” nomli maqolasida shunday yozadi: “Shukrullo dramaturgiyamizga oltmishinchi yillarning boshida kirib keldi. Uning aksariyat sahna asarlarida ko‘tarilgan asosiy mavzu hayotimizda hamon uchrab kelayotgan poraxo‘rlik, laganbardorlik, loqaydlik, riyokorlik, pastkashlik, firibgarlik kabi taviyali illatlarni ayamay fosh etishdir. Muallif bu muammolarni hal etishda drama, komediya, satira, melodrama shakllarini qo‘llagan” [Jo‘rayev F. 2:135]. Haqiqatan ham, Shukrullo qator drama, komediya, melodramalarida jamiyatdagi axloqiy-ma‘naviy muammolarni badiiy-estetik tadqiq etar ekan, asosan, zamonasining ijtimoiy illatlarini keskin tanqid ostiga oladi.

Dramaturgning “Tabassum o‘g‘rilari” asarida ham loqaydlik ijtimoiy muammosi olimlar hayoti misolida badiiy talqin etilgan. Bir qarashda, dramada jamiyatning ziyoli qatlami bo‘lgan olimlar hayoti va faoliyatidagi ba‘zi bir noqisliklar: soxtalik, firibgarlik, loqaydlik, johillik tanqid tig‘i ostiga olingandek. Mazkur drama 1965-yilda yozilgan bo‘lib, Hamza nomidagi O‘zbek davlat

akademik drama teatrida sahnalashtirilgan. Dramaning sahna variantiga B.G‘ulomov “Loqaydlik balosi” nomli taqriz yozib, “O‘zbekiston madaniyati” gazetasining 1971-yil 12-oktyabr sonida chop ettirgan. Olim maqolada shunday yozadi: “Mazkur asar sahnaga ma’lum ijodiy maktablardan o‘tib keldi. Muhokamalar uni – qo‘lyozmani kitoblik balog‘atiga olib chiqdi. Kitobga matbuotda va teatrdan bildirilgan tanqidiy mulohazalar asosida muallif uni yana ko‘rib chiqib, saviyasini oshirdi. Bu jarayonlar, shu chiniqishlar buning ustiga rejissyor Habibullo Apponov va aktyorlar fidoyiligi tufayli “Tabassum o‘g‘rilari” sahnaga chiqdi. Ba’zi tanqidiy fikrlarni unga umrboqiylik tilab bildirdik. Bu spektakl toshabinni baxt belgisi, uzoq umr garovi hisoblangan tabassumimizning nogohoniy o‘g‘rilariga qarshi ayovsiz kurashga chorlaydi” [G‘ulomov B. 5:124-125].

“Tabassum o‘g‘rilari” dramasi yaratilganiga mana oltmish yildan oshibdi. Oradan yarim asrdan ziyodroq vaqt o‘tib, drama matniga, asarda ilgari surilgan muammoga e’tibor berilsa, Shukrulloning badiiy mahoratiga tahsin o‘qiysiz. Chunki dramada tanqid etilgan “loqaydlik”, “firibgarlik”, “olimlikka da’vogar soxta olimlar” hayoti bugungi kunimiz muammolari bilan tutash ekanini his etish mumkin.

“Tabassum o‘g‘rilari” dramasi uch parda, sakkiz ko‘rinishli asar hisoblanib, unda jami to‘qqizta obraz ishtirok etadi. Bular: Diyorov (ilmiy tekshirish institutlaridan birining direktori), Iskandarov (ilmiy xodim, partiya tashkilotining sekretari), Abbosov (direktor o‘rinbosari), Yorqin (injener, laboratoriya boshlig‘i), Manzur (ilmiy xodim), Jamol aka (keksa ilmiy xodim), Guljahon (Diyorovning qizi), Yoqut (Manzurning xotini), Qosimov (ishdan chetlatilgan professor)lar dramada asosiy va personaj obrazlar sifatida ishtirok etadilar. Drama Sovet davri voqeligini aks ettirib, unda o‘sha davrdagi ilmiy tekshirish institutida sodir bo‘lgan ko‘pgina ko‘ngilsizliklar, jumladan, haqiqiy ilm fidoyilari bo‘lgan olimlarning ishdan chetlatishi, rahbarning o‘z o‘rinbosariga ishonib, loqaydlik qilishi natijasida yetuk olimning o‘limi tezlashgani va bunga sababchi bo‘lgan nopok insonlarning xatti-harakatlari tanqid etiladi. Dramadagi bu voqealar beixtiyor shu kecha-kunduzda ilm olamida sodir bo‘lib turgan ba’zi bir noxush holatlar bilan eshlik kasb etadi go‘yo.

Drama matniga e’tibor qaratsak, uning sof nasriy yo‘lda yozilmaganiga guvoh bo‘lamiz. Drama Karlo Gossining “Baxtli gadolar” dramasi kabi she’riy va sochma shaklda yozilgan. Asarning asosiy obrazi Diyorov ilmiy ish va ilmiy xodimlar bilan bog‘liq barcha ishlarni o‘rinbosari Abbosovga ishonib topshirib qo‘ygan e’tiborsiz, loqayd rahbar obrazining tipik vakilidir. Diyorov jamiyatga, ilm-fanga, xodimlari faoliyatiga o‘rinbosari Abbosovning nigohi bilan qaraydi va baholaydi.

Dramada ilm-fandagi nihoyatda og‘riqli bir nuqta, ya’ni yaratilayotgan dissertatsiyalarning barchasi ham tayinli ilmiy yangilikka ega emasligi, dissertantlarning aksariyati rahbarlarga tegishli odamlar, ularning qarindosh-urug‘lari va boshqalar ekanligi achchiq kinoya bilan qalamga olinadi.

Mazkur dramadagi voqealar dramatzimini Qosimov, Yorqin kabi fidoyi olimlar bilan Abbosov, Manzur kabi firibgar olimlar o‘rtasidagi ziddiyatli to‘qnashuvlar tashkil etadi. Shukrullo ushbu dramada xarakterlararo konfliktdan unumli foydalangani holda, qahramonlar ruhiyatidagi o‘zgarishlarni, ularning his-tuyg‘ularini, asosan, psixologik kolliziya orqali ifodalaydi.

Abbosov – amalparast, shuhratparast olimlarning umumlashma obrazi bo‘lib, u bog‘dorchilik institutida ishlab, beo‘xshov bir tajriba o‘tkazib, muvaffaqiyatga erisha olmagan soxta olimdir. U o‘z atrofiga Manzurga o‘xshagan laganbardor, iste’dodsiz yoshlarni to‘playdi. Abbosov o‘ziga o‘xshagan iste’dodsiz yosh olimlarni qo‘llab-quvvatlaydi, o‘zining qabih niyatlarini amalga oshirish uchun haqiqiy olimlarga kun bermaydi, ilm olamini bulg‘aydi.

Dramada Qosimov obrazi keltirilgan bo‘lib, u ilmga talabchan, bunyodkor olim sifatida Abbosov obraziga qarama-qarshi qo‘yiladi. Shuning uchun Abbosovga o‘xshagan firibgar olimlar uni ko‘rolmaydilar. Qosimov Abbosov va Manzurga o‘xshagan kimsalarning kirdikorlarini fosh qilarkan, Abbosovga qarata shunday deydi:

“Direktormas. Hamma ishni qilayotgan sen.

U bir soya. Sen soyaga ulangan kalla” [Shukrullo. 4:9].

V.M. Volkenshteynning fikricha, “drama bu konfliktning personajlar dialoglari va muallif remarkalari orqali ifodalanishidir” [Volkenshteyn V.M. 1:9]. Shu ma’noda, Shukrullo dramadagi konfliktni, qahramonlarning ichki dunyosini mavjud voqea va hodisa, jarayonlar mantig‘idan kelib chiqqan holda ularning dialoglari orqali asta-sekin ochib boradi. Jumladan:

**Qosimov:**

Faqat mening gunohim shuki,  
Oyog‘ingga yiqilmadim, nafsimni o‘ylab.  
Aybim shuki, na ilmga, na jamiyatga  
Foydasi yo‘q xotiningning ilmiy ishini  
Menga berding, vijdon bilan uni rad etdim.  
Aybim shuki... Qo‘y junini olgan odamga  
Tig‘ ushlatib sartarosh deb unvon bermadim.

**Abbosov:**

Bor gap shumi?

**Qosimov:**

Ayblaringni endi ochaman,  
Necha yilki, mana Manzur kandidat bo‘lib,  
Biror ilmiy ish qilgani yo‘q senga suyanib,  
Shu yo‘l bilan bir o‘zingmas, Manzur kabi pok  
Yoshlarni ham boshlayapsan yengil yashashga” [Shukrullo. 4:11].

Qosimov va Abbosov suhbatidagi so‘z va iboralar mazmuniga diqqat qaratsak, “ularning qahramonlarning o‘zlarini o‘zlari hamda bir-birlarining tavsiflovchi vosita” [Izzat Sulton. 3:193] ga aylanganligiga amin bo‘lamiz. Dialogdagi Qosimovning ta’sirchan va o‘tkir gaplari uning ichki dunyosini, xarakter xususiyatlarini yorqin ifodalashga xizmat qilgan. Dramaturg Izzat Sulton ta’kidlaganidek: “Dialog dramada fikriy “qilichbozlikdir”... Personajlar qanchalik hozirjavob bo‘lsalar, dramaning ta’siri shunchalik ortadi” [Izzat Sulton. 3:193].

Dramada Abbosov bilan suhbatidan so‘ng Qosimovning yuragi sanchib, ahvoli yomonlashadi. Abbosov “Tez yordam”ni ataylab, kechiktirib chaqiradi va iste’dodli olimning hayotdan ko‘z yumishiga sababchi bo‘ladi. Loqayd rahbar Diyorov esa Qosimovning yuragi xuruj qilganini bilsa-da, xodimining ahvoli bilan qiziqmaydi, undan xabar ham olmaydi, bu voqeaga sabab bo‘lgan omillarni o‘rganish haqida o‘ylab ham ko‘rmaydi.

Ammo yosh bo‘lishiga qaramasdan, Yorqin bu jinoyat va boshboshdoqliklarning asl sababchisi institut direktori Diyorov ekanini anglaydi. Shuning uchun sevgilisi Guljahonga “Butun gunoh otangizning loqaydligida” deb dadil ayta oladi. Yorqin boshliqning beparvoligini va loqaydligini katta gunoh deb hisoblaydi va bo‘lg‘usi qaynotasi Diyorovning bu nuqsonlarini kechira olmaydi.

Direktorning qizi Guljahon nihoyatda mehribon va toza qalbli qiz. Hatto bolaligida o‘tda yonib ketayotgan itni qutqaraman deb, o‘zining qo‘li yonib, chandiq bo‘lib qolgan. Yorqin sevgilisining ana shunday fidoyiliklari-yu, mehribonchiliklarini, qalbi tozaligini yaxshi biladi. Guljahon Yorqinning ta’sirida ko‘zi ochilib, otasining yuziga “loqayd rahbar” ekanini aytadi. Ammo Diyorov o‘zini “davlat ishiga hamisha sodiq odam” deb biladi. Vaholanki, u institut jamoasini ham, ilm olamini ham Abbosovning panjasi orqali ko‘radi va baholaydi.

Ma’lumki, badiiy adabiyot jamiyatdagi o‘zgarishlarni, yangiliklarni birinchilardan bo‘lib ilg‘aydi, ularga o‘z munosabatini bildiradi. Shukrulloning “Tabassum o‘g‘rilari” dramasiga shu jihatdan baho beradigan bo‘lsak, unda adib shaxs psixologiyasini jamiyat psixologiyasi bilan uzviy aloqadorlikda tasvirlaydi. Ya’ni dramadagi jamiyat ruhi va zamon nafasi qahramonlarning fikrlash tarzi, o‘y-mushohadalari tabiatidan kelib chiqadi. Drama voqealari real hayotdan olingan bo‘lib, Shukrullo iste’dod va iste’dodsizlik, oriflik va johillik, ezgulik va yovuzlik o‘rtasidagi to‘xtovsiz kurashni badiiy talqin etar ekan, realistik tasvir tamoyillariga

amal qiladi. Dramada shuhratparast, qallob olimlar kirdikorlarining umri qisqa bo‘lishi ishorali badiiy yechim bilan dalillanadi. Institut direktori Diyorov o‘zining ayblarini va o‘rinbosari Abbosovning kirdikorlarini, oxir-oqibat, tushunib yetadi. Shuning uchun drama Diyorovning “Aybimizni surishtirish, hukm chiqarish, bizda emas, mana endi xalqqa havola” degan ritorik gapi bilan yakunlanadi.

Xulosa shuki, iste’dodli dramaturg Shukrullo o‘zining “Tabassum o‘g‘rilari” dramasi orqali ijtimoiy-psixologik drama janrining rivojlanishiga muhim hissa qo‘shdi. Adib bu asarida nafaqat Sho‘rolar davri voqeligini, balki bugungi hayotning va insonlarning axloqiy qiyofasini, jamiyatimizdagi olimlarning tipik obrazlarini sahnaga olib chiqdi. Zero, dramada muammo sifatida ko‘rsatilgan loqaydlik, soxta ilmparvarlik kabi ijtimoiy illatlar bugungi kunning ham muhim muammolaridan sanaladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Volkenshteyn V.M. Dramaturgiya. Izd. 5-ye, dop. – M., 1969.
2. Jo‘rayev F. Illatga qarshi qaratilgan tig‘ / Shukrullo. Tanlangan asarlar. VIII jild. Maqolalar, taqrizlar, xatlar, telegrammalar. – Toshkent: Sharq, 2014.
3. Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2005.
4. Shukrullo. Tabassum o‘g‘rilari / Tanlangan asarlar. VIII jild. Maqolalar, taqrizlar, xatlar, telegrammalar. – Toshkent: Sharq, 2014.
5. G‘ulomov B. Loqaydlik balosi / Shukrullo. Tanlangan asarlar. VIII jild. Maqolalar, taqrizlar, xatlar, telegrammalar. – Toshkent: Sharq, 2014.